

BUGUNGI KUNDA YOSHLARGA AXBOROT XAVFSIZLIGI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN TAHDIDLAR VA UNING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Tuxtamurod Otamurodovich MAMATOV

assistent

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda axborot xavfsizlik bilan bog'liq bo'lgan tahdidlar va uning mohiyati haqida so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar: globallashuv, axborot xavfsizligi, psixologik xavfsizlik, axborot hurujlari, yoshlar ongi va tahdidlar, psixologik ong.

СОВРЕМЕННЫЕ УГРОЗЫ, СВЯЗАННЫЕ С ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТЬЮ МОЛОДЁЖИ И ИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

Тухтамурод Отамуродович МАМАТОВ

ассистент

Самаркандский государственный университет

имени Шарафа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

Аннотация

В данной статье рассматриваются угрозы, связанные с информационной безопасностью в информационном обществе, и их сущность.

Ключевые слова: Глобализация, информационная безопасность, психологическая безопасность, информационные атаки, молодежное сознание и угрозы, психологическое сознание.

XXI asrda global tahdidlardan biri sifatida yoshlar ongini o'zgartirishga qaratilgan va o'ziga xos psixologik ta'sir kuchiga ega bo'lgan axborot xuruji bugun o'zining sezilarli ta'siri va oqibati jihatidan insoniyat oldida turgan tashvishli muammolar sifatida xarakterlanmoqda. Chunki bugungi kunda turli mazmun va mohiyatga ega bo'lgan axborot oqimi (milliy qadriyatlarimizga yot va buzg'unchi g'oyalar yashiringan ma'lumotlar) inson tafakkuriga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, hayot va undagi minglab taqdirlarni u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli qurolga aylandi.

Hozirgi zamon globallashuv davri sharoitida dunyoning u chekkasidagi kichik bir xabar dunyoning bu chekkasiga soniyalarda tarqalishi sharoitida yuqori qiymatga ega bo'lgan axborot jahonda kuchli va talab yuqori bo'lgan sohaga aylanib ulgurdi. Bu yo'lda axborotlarni yoshlar ongiga qiziqtiruvchi usullar yordamida singdirish yo'llarini o'ylab topib, bu axborotlardan inson ongini buzuvchi vosita sifatida foydalanishga intilayotgan kuchlar va guruhlar ham o'zlarining g'arazli maqsadlarini yoyishga intilmoqda.

Bugungi shiddatli zamonda dunyoning barcha hududlari va turli sohalarida tezkor ma'lumotlar almashinuvi avj olgan bir paytda, yer yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalarda aloqa o'rnatish mumkin va turli axborotlarga ega bo'lish, bu axborotlar esa yoshlar ongiga salbiy ta'sir etuvchi axborot-psixologik qurol sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Sir emaski, XXI asrda yoshlar ongiga tahdid soluvchi vosita hisoblangan eng shiddatli va negizida ayanchli oqibatlar bilan yo'g'rilgan axborot hurujlari – axborot-psixologik urushning asosi sifatida ko'rilmogda.

Shu ma'noda olib qaralganda, bugungi kunda ochiq axborot tahdidlaridan yoshlarni himoyalash dolzarb hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining 2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi Harakatlar strategiyasida “Jismoniy sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqatai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash” [2; 3–10] bo'yicha alohida vazifalar belgilab berilgan.

Bundan tashqari mazkur masala borasida “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonunning mazmun-mohiyatida aynan yoshlarning axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash hamda yot g'oyalarga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy asoslar aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, yuqoridagi mazkur normalarga ko'ra yoshlarni psixologik qo'llab-quvvatlash, yosh avlodga yetarli ish shart-sharoitlarini yaratib berish kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ham ularning kelgusida munosib hayot kechirishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Axborot xavfsizligini ta'minlash, yot, buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashishda avvalo, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish, shu orqali o'smir shaxsiga

ta'sir etishning zamonaviy pedagogik-psixologik yutuqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning yanvar holatiga ko'ra dunyoda global ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar soni 4.66 mlrdni yoki yer yuzi aholisining 59.5 % ni tashkil qilgan. xuddi shu yilga ko'ra, 22 milliard kishi mobil internetdan foydalangan va bu dunyo aholisining 66.6% qismini tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Yillar kesimida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining soni o'sishi kuzatuvlariga e'tibor berilganda yoshlar o'rtasida bu ko'rsatkich yillar davomida kun sayin ortib borayotligi namoyon bo'ladi. Bu 2021-yil va oldingi yil bilan solishtirilgandagi ko'rsatkichlar tahliliga ko'ra, dunyoda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari 4.22 mlrd va yer yuzi aholisining 53 % ni, so'ngi 12 oy (2021)da 13 % ga 490 mln foydalanuvchiga oshganligi ma'lum bo'ldi [11;18-20].

Biz yoshlar o'rtasida axborot-psixologik xavfsizlik masalalari haqida fikr yuritganda quyidadi tahlillarga ahamiyat berishimiz lozim. Ya'ni, turli mafkuraviy-siyosiy ziddiyatlar ta'sirining tobora oshib borishi natijasida yoshlar ongiga psixologik hujumlar uyushtirish ehtimoli yuqori. Ya'ni, biror siyosiy tuzilma yoxud birlashma tashkilot, davlat haqida turli vositalar orqali o'zgartirishga intilishni avj oldirish orqali o'z maqsadlari yo'ida harakat qilishi va bunda ijtimoiy tarmoqlarga sizdirilayotgan turli mazmundagi video o'yinlarning ayrimlari, kinolar, multfilmlar, ularda ijro etuvchi bosh qahramon obrazi asl holatda salbiy shafqatsiz, axloqsiz holda tasvirlanishida bola uni qo'rqmas, kuchli hech kim bilan hsoblashmaydigan aggressor qiyofasida ko'radi va buning natijasida o'zi ham shu "qahromon"ga aylanib qolish hissi uning psixologiyasiga singadi va bunga sidqidildan intiladi. Ko'rinib turibdiki, axborot-psixologik xavfsizlik nafaqat yoshlar psixologiyasini, balki ularning ongini ham egallaydi. Yoshlar o'rtasida axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish bo'yicha tarixiy, ilmiy va diniy adabiyotlarga nazar soladidan bo'lsak, muqaddas "Qur'oni karim"da, hadislarda, tarixiy manbalarda "Avesto", qadimgi yozma yodgorliklar, ajdodlarimiz U. Kaykovus, Y.x.Hojib, A.Yassaviy, A.Farobiy, A.Beruniy, A.Navoiy, H.Koshifiy,

B.Naqshband tomonidan yozib qoldirilgan ilmiy-falsafiy asarlar, ta'limotlarida ham mukammal fikrlar aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ochiq axborot tizimlari sharoitida axborot-psixologik xavfsizlik muammolari chet el va yurtimizda ham har xil qarashlar bo'yicha o'rganilganligi ma'lum bo'ladi. Jumladan, G'arb psixologlaridan Y. Burgess, P. Boennan L.Terman, M.odema R. Veys, E.Tiyd, G. Rolandlar izlanishlarida etnik munosabatlarning psixologik talqinini tahliliy muhokamasini e'lon qilgan bo'lsa, M. Griffist, Shumaxer, J K.Yang, a.Goldberg, R. Devis, J.Groxol, K. Surrat shaxsning axborot-psixologik xavfsizligiga shaxsiy qadriyat sifatida qarab, yoshlarda "internet-tobelik" tushunchasini izohlab berganligini ko'ramiz.

Sohaga oid manbalarda keltirilishicha, bugun yoshlar orasida turli global tahdidlarning oldini olish maqsadida axborot-psixologik xavfsizlik muammosini o'rganish uchun avvalo yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ommaviy madaniyat ta'sirlardan himoya qilish lozim. Ayniqsa, bugungi yoshlarda internet-tobelik muammosi, yoshlarda shaxs xulq-atvorinining shakllanishida OAVning o'rni yuzasidan ko'plab ilmiy izlanish va tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. aniqroq aytganda, yurtimizda o'smir yoshdagi o'quvchilarda kompyuter o'yinlariga tobelikka oid tadqiqotda psixologik yetuklik asosida yondashilib, 46% o'smir psixologik yetuklikninng quyi darajasida, 15 % yuqori darajasi qayd etib o'tilganligini ko'rish mumkin [7;102].

Ta'kidlash o'rinliki, hozirgi global axborot asrida yoshlar ongiga axborot manbaalari orqali o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qiladigan axborot xurujlarining turli ta'sir etish xususiyatlariga ko'ra xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkotrafik, qurol-yarog' va o'q-dorilar kontrabandasi, kompyuter firibgarligi, kiberjinoyat, transplantatsiya uchun inson tana a'zolarining noqonuniy savdosi, qimmatli qog'ozlarni qalbakilashtirish va noqonuniy daromadlarni legallashtirish, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy migratsiya, missionerlik va prozelitizm harakati kabi tahdidlar ko'rinishida o'rin olgan [2; 29]

Axborotlashgan jamiyatda butun dunyoda ochiq axborot tizimlarining turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlichaligini ko'rsatmoqda. Bu jarayon

dunyoda davlatlarning iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bevosita bog'liqdir. xususan yurtimizda aholining 60% ini yoshlar tashkil qilishini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu masalada ular va bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan dolzarb chora-tadbirlarning o'lchovini tasavvur qilish zarur bo'ladi.

Bugungi kunda jahonda sodir bo'layotgan turli xavf-xatarlar va global tahdidlarning yoshlar psixologiyasiga salbiy ta'siri va undagi xatarlardan saqlanish uchun ushbu holat va jarayonlarning maqsadini yoshlar chuqurroq anglab yetishlari va bu tahdidlarni mohiyatini o'rganish talab etiladi. Yoshlarda axborot-psixologik xavfsizlikni shakllantirish o'smir faoliyatining yetakchi turi, har bir o'smirning hissiy-irodaviy, ruhiy kechinmalari, intellekti rivojlanganligi, jamiyatda shakllangan ijtimoiy-ma'naviy muhit omillari bilan bevosita bog'liq ekanligini unutmaslik kerak.

Axborot-psixologik xavfsizlik va yoshlarni turli tahdidlardan himoya qilish bo'yicha o'rganilgan ilmiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, bugungi yoshlar zamonaviy dunyo bilan hamnafas tarzda o'zlari uchun qiziq tuyulgan barcha yangiliklar hamda hodisalarga yondashuvlarida ularning ong-u shuuriga egalik qiluvchi yot g'oyalar ham yonma-yon turganligini ko'rish mumkin.

Yangi O'zbekistonning o'sib kelayotgan yoshlarini III Renessansni bevosita ishtirokchisi sifatida insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarimiz va sof islom tafakkuri negiziga asoslangan g'oyalar asosida ulg'aytirish masalasi bugungi kunning talabiga aylanmoqda.

Yoshlarning ongi va psixologiyasiga tezroq ta'sir ko'rsatishda tahdidlar jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy-ma'naviy, ekologik, harbiy, ijtimoiy demografik sohalariga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin [10; 18].

Bugun yoshlar ongi va shuurida turli ochiq axborotlarga munosib shaxs immunitetini mustahkamlash va axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning quyidagi imkoniyatlarini qayd etish mumkin. O'smir shaxsi tez o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lib, rivojlanish jarayonida xulq-atvorini nazorat qilib borish talab etilishi, yoshlarda psixologik inqirozning ma'lum bir darajasi davrini boshdan

o'tkazayotganligi sababli o'zgalarnining qo'llab-quvvatlovini tuyish xohishi muhimligi, real "Men" va ideal "Men" o'rtasidagi tafovutlarning mavjudligi, ayniqsa, ularda balog'at yoshidagi ruhiy o'zgarishlar hamda organizmidagi garmonal o'zgarishlarni inobatga olish, o'smirlarni qat'iyatli bo'lishga o'rgatish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi. <https://president.uz>
3. Абдуазимов О. Оммавий ахборот воситалари –фуқаролик жамийятини барпо этиш омили. –Тошкент: Академия, 2008.
4. Грановская Р.М., Крижанская С. Творчество и преодоление стереотипов. – СПб.: ОМС, 1994.
5. Kamolov A. Jamiyatni axborotlashtirishda fuqarolarning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash masalalari haqida. "oriental art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz> Volume 5 Issue 1 / February 2024.1-4 bet.
6. Мўминов Ф., Ш.Баротов Ш. ва бошқ. Очиқ ахборот тизимларида ахборот-психологик хавфсизлик. – Тошкент: Фан ва технология, 2013.
7. Safayev N.S., Ergashev P.S., Amirova N.A., Odilova N.G., Rahimova I.I., Ziyavidtinova G.Z. Psixologik yetuklik asosiy mezonlar va rivojlanish qonuniyatlari. – Toshkent, 2018.
8. Umarov B., Axmedova M. Axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Ijtimoiy gumanitar oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013.

9. Фалсафа: қомусий лугати (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров). – Тошкент: Шарқ, 2004. – 243 б.
10. Sharopova S. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari: Monografiya. – Guliston, 2020.
11. Yusupova Yo.M, Axborot psixologik xavsizlikni ta'minlashda kommunikativ yondashuv masalalari //Tadqiqotlar jahon ilmiy – metodik jurnali, 30-son_2-to'plam_Yanvar 2024.